



TARAQKIYET TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-15, (March) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

ABDINABIYEVA Shaxina Shavkat qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti

2-bosqich talabasi

MAXSUS PEDAGOGIKA VA INKLYUZIV TA'LIM: TARMOQ TURLARI VA VAZIFALARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maxsus ta'lim- tarbiyaga ehtiyoji bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berib boruvchi, ulardagi mavjud bo'lgan nuqsonni erta aniqlash, korreksiyalash, olingan nazariy ma'lumotlarni amaliyotda tadbiq etish, kabi g'oyalar bilan yo'g'rilgan maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim sohasi haqida so'z boradi. Bu sohaning rivojlanish tarixi, davo choralari ko'rish, metodlarni ishlab chiqish, kabi kategoriyalar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim turlari, maxsus pedagogika, ruhiy rivojlanish, ortda qolish, inklyuziv ta'lim, surdopedagogika, logopediya, pedagogika, oligofrenopedagogika, duduqlanish, afaziya, alaliya, dizartriya, dislaliya, gippokrat, kladiya, galen.

Bugungi kunda qulog'imizga bot-bot eshitilayotgan maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim sohasi haqida so'z yuritar ekanmiz bu qanday soha? Nimalar olib boriladi? Qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda? Kabi savollar talaygina bunday savollar javobini topish istagida bo'lgan kitobxon, ijodkorlarni keng mushohada yuritishga undaydi. Qani endi birgalikda bu soha va uning tarmoqlari haqida so'z yuritimiz.

Maxsus pedagogika - jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan Hisoblanadi. Maxsus pedagogika jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos o'quv ta'lim faoliyatlarini hisobga olgan holda pedagogikaning umumiy tamoyillari asosida rivojlanar ekan.

Maxsus pedagogikaning bosh vazifasi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'limtarbiyasini tashkil etishning ilmiy va nazariy asoslarini yaratish hamda shunga mos defektolog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu esa o'z navbatida maxsus ta'lim-tarbiyaga muxtoj bo'lgan bolalarni erta tashxislash, korreksiyalash, undagi mavjud bo'lgan orqada qolishlikni bartaraf etish, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Jamiyatimizda mavjud bo'lgan bunday bolalar ta'lim-tarbiyasini qay tarzda olib borish, qanday bilim ko'nikmalarga asoslanish kabi tushunchalar mutlaqo notanish bo'lgan ota-onalarimiz uchun ham asosiy xizmat ko'rsatadi.

Maxsus pedagogika, shuningdek, bolalarni psixikpedagogik va klinik jihatdan o'rganish, nuqson sabablarini aniqlash, pedagogik tasniflash va turlarga ajratish, maxsus ta'lim va tarbiya muassasalari sharoitida bolalarga individual muomala qilish, nuqsonli bolalarni jismoniy mehnatga tayyorlash kabi masalalarni ishlab chiqishdan ham iborat. Maxsus pedagogika qanday nuqsondagi bolalarni o'rganishiga qarab surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya kabi sohalarga bo'linadi.

LOGOPEDIYA (logos va yunoncha-paediya tarbiyalash o'qitish) degan ma'nolarni anglatadi.

Logopediya pedagogika faning bir tarmogʻi hisoblanib, nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, oʻqish va yozuvdagi nuqsoni va boshqalar) ning sabablari ularning oldini olish, tuzatish, yoʻllarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus taʼlim va tarbiya vositasida oʻrganadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalariga toʻxtaladigan boʻlsak dastlab 17-asrda Yevropa mamlakatlari orasida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tadqiq qilina boshlangan.

19-asrning 2-yarmida bu sohaga mustaqil ravishda, ammo tibbiyot nuqtai nazaridan yondashilgan Logopediyaning nazariy yoʻnalishi nuqtadagi buzilishlarni oʻrganish, ularning sabablarini aniqlash, oldini olish, va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarni ishlab chiqishdir amaliy yoʻnalishi esa, ana shu metodlarni tezroq tadqiq qilish mazkur nuqsonlar va keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf etishdan iborat. Logopediyada maʼlum boʻlishicha, nutqdagi kamchiliklarning paydo boʻlishi, tabiati, inson ruhiyatiga taʼsiri turlicha boʻlar ekan (Alaliya, afaziya, duduqlanish, dizartriya).

ALALIYA (yunoncha inkor qoʻshimchasi va laliya nutq) bosh miya katta yarim sharlari poʻstlogʻidagi nutq zonalarining chala rivojlanishi yoki zararlanishi sababli bolalarning tilga kirmasligi yoki tuzuk soʻzlamasligi bilan taʼriflanar ekan.

Alaliyada bola nutqi uzoq vaqt rivojlanmaydi 5;7 yoshgacha baʼzan, 10-12 yoshgacha bolaning tili chiqmasligi ham mumkin.

AFAZIYA (yunoncha inkor qoʻshimchasi va phasis-fikr) gapira olmaslik, soʻzlash qobiliyatining buzilishi bilan taʼriflanar ekan. Afaziyaga bosh miya poʻstloq qavatidagi sezlash markazining oʻzgarishi sabab boʻladi. Motor (harakat) va Sensor (sezish) xillari mavjud ekan.

DIZARTRIYA termini grekcha soʻzdan olingan boʻlib (dis-buzilish, arthon-biriktirish) degan maʼnoni anglatadi. Dizartriya nutq aʼzolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz nafas buzilishlari hamda nutqning surʼati retmi va ifodaliligida oʻzgarishlar kuzatiladi. Dezartriya toʻrtta shakl mavjud boʻlib piramidali, ekstrapiramidali, peshona-pontionali, va serebellyar kabi shakllarga boʻlinadi.

DISLALIYA termini grekcha soʻzdan olingan boʻlib, (dis_buzilish, laliya_nutq) degan maʼnoni anglatadi. Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng koʻp tarqalgan kamchilikdir. Hozirgi davrda "Dislaliya" termini xalqaro xarakterga ega boʻldi. Notoʻgʻri nutq kamchiligi haqidagi birinchi maʼlumotlar qadimgi gerokimli PLUTARX, GIPPOKRAT, KLADIYA, GALEN va boshqalarning ishlarida bayon qilinadi.

DUDUQLANISH tutilib gapirish; nutq maromining buzilishi, harf va boʻgʻinlarni tutilib-tutilib yoki bir necha marta qaytarib talaffuz qilish bilan xarakterli. Koʻproq bolalarda uchraydi. Tugʻma irsiy omillar (alkogolizm, giyohvandlik), koʻpincha qoʻrqish, hayajonlanish, (kamdan -kam hollarda taqlid qilish), homiladorlik davridagi turli zararli illatlarning homila jismiga taʼsiri, baʼzan goʻdaklikka endi nutq shakllanayotganda ruhiy kasalliklar bilan ogʻrinish, bosh miya shikastlari va boshqa kasalliklar duduqlanishga sabab boʻladi. Ular bilish jarayonini, atrofda kishilar bilan muomalani qiyinlashtiradi. Bu narsa bolaning faoliyatida yurish-turishida aks etadi.

Ogʻir nutqiy buzilishlar esa insonning aqliy rivojlanishiga, ayniqsa, oliy bilish faoliyati darajalariga, shaxsning shakllanishiga taʼsir etadi, uning xarakteridagi tortinchoqlik, qatʼiyatsizlik, odamovilik, nomukammallik tuygʻusi kabi salbiy xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Oʻlkamizning buyuk alloma, shoir va mutafakkirlari, xususan Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Amir Temur va boshqalar Defektologiyani izchil va atroflicha muayyan yoʻnalishda oʻrganmagan boʻlsalar ham oʻz asarlarida defektologik holatlarning aks etishi, namoyon boʻlishi, rivojlanishi, oʻzgarishlari toʻgʻrisida qimmatli fikrlar bildirishgan.

O‘zbekistonda defektologiyaning ilmiy-nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlari bilan G.Sh.Aytmetova, YE.D.Gordiyenko, L.R.Mo‘minova, R.SHomaxmudova, G‘.Shoumarov va boshqalar shug‘ullangan. Jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni jamiyatga foydali kishilar qilib tarbiyalash uchun O‘zbekistonda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari, maxsus maktablar, maxsus internat maktablar mavjud.

SURDOPEDEGOGIKA: (lot.surdus kar va pedagogika)_Defektologiya tarmog‘i; kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, o‘quv fanlarini o‘qitish, talaffuzni o‘rgatish va “lab bilan o‘qish”, mehnatga o‘rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari aynan surdopedagogikaga tegishlidir.

Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib, maxsus o‘quv tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o‘quv tarbiya muassasalarini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o‘rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og‘zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og‘zaki nutqni o‘rgatish uchun so‘zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko‘rsatiladi. Zaif eshituvchilarda teri daktil, va boshqa xususiyatlar yaxshi rivojlanganligi bilan bir qatorda ularda labdan o‘qish xususiyati ham yuqori darajada rivojlangan.

Oligofrenopedagogika (Oligofreniya va pedagogika) — aqli zaif bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, korreksiyalash (tuzatish), ijtimoiy xayotga jalb etish masalalarini o‘rganuvchi defektologiya tarmog‘i. Oligofrenopedagogikaning asosiy vazifasi akli zaif bolalarning rivojlanishida korreksion tarbiyaning mohiyatini ochib berish, ulardagi nuqsonning rivojlanishini va nuqsonning o‘zini bartaraf etish yo‘llarini, maxsus maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida akli zaif bolalar uchun maxsus ta‘lim tarbiya va korreksion rivojlantiruvchi ish va metodlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishdan iborat. Oligofrenopedagogika umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika, nevropatologiya, pediatriya, oligofreniya klinikasi yutuklariga asoslanadi.

19-asr boshlarida tibbiyot va pedagogikaning rivojlanishi tufayli muayyan yo‘nalish sifatida vujudga keldi. O‘sha asrning o‘rtalarida fransuz vrachi va pedagogi E.Segen (1812—80) aqli zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalash nazariyasini ishlab chikdi. Ayniqsa, uning "Akliy normal bo‘lmagan bolalar tarbiyasi, gigiyenasi va axloqiy davosi" asari (1846) O.da katta yutuq bo‘ldi. Chet ellarda O.ning shakllanishi J.Demor va O. Dekroli (Belgiya), B.Mennel va A.Fuks (Germaniya), A.Bine, J. Filipi va I.Bonkur (Fransiya), V.M.Bexterev, P.F.Lesgaft, L.S. Vigotskiy (Rossiya) va boshqa nomi bilan bog‘liq. O‘zbekistonda S.T.Aytmetova, K. K.Mamedov, P. M.Po‘latova, M.I.Soa-tovalar tomonidan Oligofrenopedagogika bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi tayyorlanib nashr etilgan. O‘zbekistonda akli zaif bolalarni tarbiyalash va o‘qitish maxsus yordamchi maktablaraa amalga oshiriladi.

Oligofrenopedagogikada bola his-tuyg‘usini boyitishga, nutqini rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, ta‘lim-tarbiyaviy jarayonda ko‘rgazmali qurollar va boshqa metodlardan keng foydalaniladi. Akli zaif bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganish asosida har bir bolaga individual yondashiladi. Hozirgi kunda oligofrenopedagoglarni Toshkent pedagogika universiteti va pedagogika institutlarining defektologiya fakultetlari tayyorlaydi.

Oligofrenopedagogikaga oid ilmiy tadqiqot ishlari O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida, Toshkent pedagogika universiteti va ayrim pedagogika intlarining defektologiya kafedralarida olib boriladi. Bularning har biri umumiy pedagogika tarmog‘ini va barchasi birgalikda defektologiyani tashkil etadi. Jamiyatimizda bunday bolalarga samarali xizmat ko‘rsatilayotganligi yurtimizda maxsus maktablarning ochilishi, bepul tibbiy xizmatlar, kasb-xunar maktablari, ularni mahorat darslariga jalb etish, moddiy tomonlama qo‘llab quvvatlash kabi say harakatlarda o‘z aksini topadi.

O‘zbekistonda Maxsus pedagogika bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, pedagogika institutlarining defektologiya fakultetlari uchun Q.Q.Mamedov, M.I. Soatov va P.M. Po‘latovalar tomonidan "Oligofrenopedagogika asoslari", L.R. Mo‘minova va M.Y. Ayupovalarning "Logopediya" qo‘llanmalari yaratildi.

Bulardan tashqari, S.A. Aytmetova, M.Y. Ayupova, D.A. Gordiyenko, Q.Q. Mamedov, L.R. Mo‘minova, P.M. Po‘latova, V.S. Rahmonova, M.I. Soatov, R. Shomahmudova va boshqalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nuqsonlarini aniqlash, to‘g‘rilash va bartaraf etishning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan qo‘llanma, dastur, ma’ruza matnlari, uslubiy tavsiya va maqolalari e’lon qilingan.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. БАДАЛЯН Л.О. НЕВРОПАТАЛОГИЯ.-М1987
- 2.” LOGOPEDIYA” (L. MO‘MINOVA, M. AYUROVA). T-1993
3. MAJIDOV. “NEVROPATLOGIYA” T-1986